

## ILK BOLALIK DAVRI PSIXOLOGIYASI

Andijon davlat pedagogika instituti  
Pedagogika va psixologiya kafedrası  
o‘qituvchisi Yoqubaliyeva Dilafro‘z  
Maktabgacha ta’lim fakulteti 1-bosqich  
talabasi Yusupova Nargiza

**Annotatsiya:** Maqolada ilk bolalik davrida tashqi muhitning ta’siri. Ilk bolalik davri psixologiyasi va bolalik davrida fiziologik va jismoniy rivojlanish, nutq va tafakkurning rivojlanishi. Aqliy rivojlanish, ilk bolalik davri muomolari va yechimlari haqida s’oz boradi.

**Kalit so‘zlar:** Egotsentrizm, “Men” konsepsiyasi, predmetlivaziyat, predmetli faoliyat, mexanik xotira, vaziyat nutqi.

Bolaning yurishga urinishi, turli narsalar bilan ovunishi va mashg‘ul bo‘lish imkoniyatlari kengayishi, uning kattalarga bevosita tobeligi, ularga bog‘liqligi nisbatan kamayishiga olib keladi. Binobarin, uning mustaqil harakat qilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi. Bir yoshli va undan sal oshgan bolaning har xil harakatli o‘yinlarda muvaffaqiyatsizlikka uchrashi, ko‘zlagan ishni bajarishdagi noxush kechinmalar uning ruhiy dunyosida dastlabki jazava (affektiv) tuyg‘u va hisni vujudga keltiradi. Shuningdek, o‘z faoliyatida uchraydigan ko‘ngilsiz voqealarga shaxsiy munosabatini bildirish-aksettirishning yangi shakli ta’sirlanish (reaksiyaga kirishish) ni tarkib toptiradi. Bola mazkur holatni intuitiv ravishda kashf qiladi, bu narsa grammatik aloqalarda, morfologik o‘zgarishlarda namoyon bo‘ladi.

Emaklash bolaning 1 yoshdan 3 yoshgacha bo‘lgan (ilk bolalik) davrida boshlanadi. Bu yoshdagi harakatdagi eng katta yutug‘i to‘g‘ri va tik yura boshlashi psixikasining rivojlanishini ta’minlovchi predmetli faoliyatning yo‘lga qo‘yishi va gaplarni tushunib nutq rivojlanishidir. Yurish vaqtida to‘g‘ri yurish ularni qoniqtirmaydi. Orqaga ko‘zlarini yumib baland-past joylardan yurib o‘zlari-o‘zlariga qiyinchilik tug‘diradi va uni yengishga harakat qiladi. Uyqu vaqti kamaya boradi. 1,5 yoshdan 13,5 soat kechasi va 2 mahal, kunduzi 3 yoshga yetganda 12 soat kechasi va 1 mahal kunduzi uxlaydi. Jismoniy jihatda o‘shishi quyidagi ko‘rsatkichlar atrofida bo‘ladi.

1 yashar bo‘yi 75 (yiliga 25) vazni 9 (yiliga 6)

2 yashar bo‘yi 85 (yiliga 10) vazni 12,5 (yiliga 3,5)

3 yashar bo‘yi 92 (yiliga 7) vazni 14 (yiliga 1,5)

Suyaklar qotishi va o‘shishi protsessi davom etadi. 3 yoshga yetganda sut tishlari chiqib bo‘ladi. Umurtqasi rivojlanib bola gavdasini ko‘taradigan bo‘ladi. Ichki organlarda ham o‘sadi, o‘pka va yurak harakatlarining aktivligi hisobiga vazn ortib faolligi ortadi. Leykotsit kam bo‘lganligi uchun yuqumli kasalliklarga tez beriluvchan bo‘ladi.

### **Bola tafakkurida egotsentrizmning yuzaga kelishi.**

1. Bolalarda 1-3 yosh oralig‘ida kattalarga taqlid qilish holati kuchayib ketadi.
2. Bolalar 1,5-2 yoshdan boshlab o‘zlarini boshqa insonlar va predmetlardan alohidan ekanligini anglay boshlaydilar va ular dunyoni quyidagicha idrok eta boshlaydilar: "Men odamlar e’tiborining markazidaman", "Butun olam mening atrofimda aylanadi". **Bu holatlarni qanday izohlaysiz?**

Nerv sistemasi ham tez taraqqiy etadi. Bu davrda bolalarda qo‘zg‘alish tormozlanishda ustunlik qiladi. Bolada shartsiz reflektor faoliyatiga endi bosh miya po‘sti nazorati ostida yuzaga keladigan xilma-xil harakatlar bo‘ladi. Masalan, issiq choynak. Bu 1 signal sistemasini faoliyati bo‘lib, endi 2 signal sistemasi yani nutq so‘z orqali xatti harakatlarni boshqarishda katta rol o‘ynaydi. Bu davrda sezgi organlari yaxshi takomillashadi. (eshitish, tuyg‘u, og‘riqni sezish) bular psixik taraqqiyot uchun zamin yaratadi. Idrok va tasavvurni

o’sishi. Bolada shartsiz orientirovka refleksi asosida har narsaga qiziqish va dunyoni bilish ishtiyoqi uchun ularda idrok va tasavvur hisobiga bo’ladi. Bu analizator (sezgi organlari) takomilashishi sababli go’dak tevarak atrof haqidagi tarqoq tasavvurlar butun-butun obrazlardan idrokka aylanadi. Yana harakat ko’paygan sari uning bilish imkoniyati kengayadi. Faqat emaklab yurib qolmasdan zinalardan tushish to’siqlarni aylanib o’tish, stulga chiqish, o’yinchoqlarni mustaqil o’ynash va boshqalar. Tortmalarni sumkalarni titqilab, qiziqib, tekshirib yangiliklarni bilib oladi. Bu bola idroki rivojlanishini ko’rsatadi.

Bu yoshda bola narsalarning katta kichikligini idrok etishda qiynaladi. Fazani tussmallab idrok qiladi. Vaqtini idrok qilishga juda ko’ptirishadi. Erta-bugun kecha tushunchalarini ishlatishda qiynaladi. Maktab yoshida ham qiynaladi. (ba’zida). Nutq idrok uchun boy materiallari bo’lib, u yordamida tasavvur ham shakllana boradi.

**Diqqat:** Bu yoshda bolalarga ixtiyorsiz diqqat xosdir. Rang-barang narsalarga ko’proq e’tibor beradi. Beqaror diqqat (bir o’yinchoqdan ikkinchi o’yinchoqga o’tib ketishi) fiziologik asosi bosh miyada qo’zg’alish tormozlanishiga nisbatan kuchli. Shuning uchun miyada muvozanatga kelish qiyin bo’ladi. Bog’chagacha davr oxirlarida diqqatni barqarorligi 2 barobar o’sadi. Bu davrda ixtiyoriy diqqat hali bo’lmaydi.

**Xotira.** Bu davrda ixtiyorsiz xotira bo’ladi. Bola materiallarni ongli ravishda esda saqlab qololmaydi. Lekin tanish protsesslar esga tushirishga sabab bo’ladi. 2 yoshga yakinuylarni, o’z buyumlarini tanib oladi. Rasmlardan ismlarini aytib beradi. Dastlabki xotiralar paydo bo’ladi. Bolada kuchli kechinma va juda yorqin obraz tug’dirgan narsa uzoq vaqt esda qolishi va esga tushishi mumkin. Bola idrok qilgan narsasini konkret obraz tasavvurlar shaklida esda saqlab qoladi.

**Taqlid qilish.** Kattalardan nusxa ko’chirish orqali ularning imo ishoralarini o’rganib, shu harakatlarni takrorlashga intiladi. (Telefonda, chaqaloq qaqarash, kir yuvish supurish sigaret chakish) Ularda mexanik xotira yaxshi o’sgan bo’ladi. 3 yoshga yaqin bolada ertak mazmunlarini ham 4 satrlik she’rlarni ham oradan bir oy vaqto’tkazib aytirilganda yaxshi eslagan. Savol berib uning manosini ham bilishga harakat qiladi.

**Nutq va tafakkur.** Sekin aytilgan so’zlarni tushuna boshlaydi. **1 davr.** 1-1,5 yosh 20-30 ta so’zni biladi. “oyi” so’zini imo ishoralar bilan aytadi. Bu “situativ nutq vaziyat nutqi” deyiladi. Birga bo’lgan kishisi tushunadi. Bolada lug’at passiv ravishda rivojlanadi, yani 1 tomonlama faqat tushunib, o’ziga singdirib beradi. **2 davr.** Aktiv lug’at rivojlanadi. Nutq egallash protsessi sifati o’zgaradi. Yangi so’zlarni osonlikcha o’rgana boshlaydi.

1 yoshda o’rgangan so’z 3ta

1,3 yoshda o’rgangan so’z 19-20

1,6 yoshda o’rgangan so’z 25-30

1,9 yoshda o’rgangan so’z 120

2 yoshda o’rgangan so’z 280

2,6 yoshda o’rgangan so’z 450

3 yoshda o’rgangan so’z 800-900

Bu ko’rsatkichlar turlicha bo’lishi ham mumkin. Ko’proq muloqotda bo’lishning ham ta’siri ko’p. Avval faqat nutqda extiyojlari ifodalangan bo’lsa, endi nutqning kam berish funksiyasi oshadi. Ma’no kira boshlaydi. Bu nima? Nima qiladi? Nutqning rivojlanishi tevarak atrofni bilish uchun vosita bo’lib ifodalanadi. Imo ishora qilib tafakkur bo’ladi, idrok va ish harakatlar bilan bevosita bog’langan bo’ladi. Fikarlarni so’zlar bilan tushuntira olmaydilar. Yaqqol konkret tafakkur bo’ladi. 3 yoshga qarab ketganda nutq orqali tafakkuri shakllana boshlaydi. Asosiy fikrlash operatsiyalari oddiy ko’rinishda paydo bo’ladi. Analiz taqqoslash sintez umumlashtirish, sodir bo’la boshlaydi. Tom ma’noda fikrlash operatsiyalari emas, grammatika rivojlangan sari fikrlarni aniq ayta boshlaydi. Kattalar nutqidagi noto’g’rilikni anglab tez takrorlashga harakat qiladilar. Bolada tafakkur rivojlanishi undagi qiziquvchanlik va sinchkovlik xususiyatidan kelib chiqadi. Titqilash, bu nima? Savollar

berish kattalar ishiga tiqilish va x.k. bola atrofda informatsiyalarni kattalarning tushuntirishlari bilan o’zlashtirish yaxshiroq tushunadi. Yuqorida aytilgan operatsiyalarni miyalari ayniqsa solishtirish analiz sintez rivojlanadi. Bolada “qo’l tafakkuri” davri 2 yoshda bo’ladi. Masalan vazani ichidan biror buyumni olish. Endi savollar bu nima? Shaklidan buni nima qiladi? Ko’rinishga ya’ni predmetning funksiyasini bilishga qaratilgan. Nutq o’sishi tafakkur o’sishi uchun zamin deyilgan edi. Tafakkur rivojlanishi ham o’z navbatida so’z zapaslarini oshishiga olib keladi.

Shunday qilib, yuqoridagi mulohazalar asosida umumiy bir xulosaga kelish maqsadga muvofiqdir. Ma’lumki, ikki yoshga to’lgan bola tilninig barcha tovushlarini fonetik jihatdan idrok qilish asosida nutqni tushinish imkoniyatiga ega bo’ladi. Nutqning o’sishi bola xayolining o’sishiga katta ta’sir ko’rsatadi. Bolalar kattalarning gaplariga tushunadigan bo’lgach, xar xil ertak va xikoyalarni qiziqib tinglaydigan bo’ladi. Bolalar u o’zlari biladigan, o’zlariga yaxshi tanish bo’lgan narsalar xakidagi xikoyalarni joni dili bilan eshitadilar. Xar bir hikoyani eshitganda bolada xilma-xil tasavvurlar yuzaga keladi. Bola bu tasavvurlari yordamida xayol qilish kobiliyatiga ega bo’ladi. Bola xikoyalarni eshitish orqali olgan tasavvurlarini so’zlar bilan ifodalaydi. So’z esa bolaning narsalarni boshkacha idrok qilishiga, ularning boshka narsalarga o’xshashligini aniqlashiga va ana shunday o’xshashliklarni aniqlash asosida yangi obrazlar, yangi tasavvurlar yaratishga yordam beradi.

Ilk bolalik davridagi bolalarda barcha psixik jarayonlar ma’lum darajada rivojlanar ekan, bu umuman ular ongining rivojlanishiga zamin yaratadi. Tili chiqib, idrok va tafakkuri anchagina o’sgan bola tevarak-atrofdagi xar turli narsalarga ongli munosabatda bo’la boshlaydi. Bola uzining turli extiyojlarini anglab, o’zining shaxsini shakllantira boshlaydi. Mashxur fiziolog I.M.Sechenovning tili bilan aytganda, bola ana shu davrdan boshlab, o’z sezgilarini tevarak atrofdagi narsalardan ajratib, o’z-o’zini anglay boshlaydi. Bu yoshdagi bolalarning so’z boyligida o’z shaxsini bildiruvchi «men» degan olmosh tez-tez uchrab turadigan bo’ladi. Ana shu tariqa bola juda elementar tarzda bo’lsa xam uzini shaxs sifatida anglay boshlaydi. Binobarin, ana shu davrdan boshlab ilk bolalik davridagi bolalarning shaxsiy (individual) xususiyatlari kamol topa boshlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Горошко Е. И. К уточнению понятия «Компьютерно-опосредованной коммуникация»: проблемы терминоведения // ОТО. - 2009. - № 2. - С. 445-
2. Болотова А.К., Жуков Ю.М. Психология коммуникаций [Текст] : моногр. А.К. Болотова, Ю.М. Жуков; Нац. исслед. ун-т «Высшая школа экономики». - М.: Изд. дом Высшей школы экономики, 2015. - 495 с
3. Белинская Е.П. Современные исследования виртуальной коммуникации: проблемы, гипотезы, результаты / Е.П. Белинская, А.Е. Жичкина // Образование и информационная культура. - М., 2000. - С. 395-428  
Жичкина А.Е. Взаимосвязь идентичности и поведения в Интернете пользователей юношеского возраста: дис. . .канд. психол. наук: 19.00.05 / А.Е. Жичкина. - М., 2001. - 199 с.